

IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

Raximov Javohir Oktyabrovich*Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti**Axborot texnologiyalari kafedrasи stajyor o'qituvchisi***Komolov Og'avek Zayniddin o'g'li***Menejment yo`nalishi talabasi*komolovogabek988@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi omillarni o'rGANishdan iborat. Tahdid jamiyat, davlat va ularning sub'yektlari, alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiladigan, ziyon zahmat keltiradigan, xavf-xatar tug'diradigan omillar va shart-sharoitlarni anglatadi. Iqtisodiy tahdidlar mamlakat iqtisodiyoti rivojiga, jamiyat, davlat, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga bevosita xavf tug'diradi. Bu tahdidlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishni izdan chiqarib, aholining turmush darajasini pasayib ketishiga olib keladi, jamiyat hayotida tanglik holatlarini keltirib chiqaradi, ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazadi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy xavfsizlik, tahdid, tahdidning turlari, ichki tahdid, tashqi tahdid.

Iqtisodiy xavfsizlik – iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. U iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlangan, ijtimoiy ehtiyojlar optimal darajada qondirilgan, ratsional boshqarish amalga oshirilgan, milliy va xalqaro darajalarda iqtisodiy manfaatlarning himoyalangandagi holatini ifodalaydi. Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi, uning moddiy asosi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiy kategoriya sifatida davlatchilik shakllangan hamda jamiyat o'z manfaatlarini anglab yetgan davrlardan paydo bo'la boshlagan. Iqtisodiy xavfsizlik o'zining ob'ekt va sub'ektlariga ega bo'lib, uning ob'ekti deganda mamlakatning iqtisodiy tizimi hamda uni tashkil etuvchi elementlari tushuniladi.

Tahdid jamiyat, davlat va ularning sub'yektlari, alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiladigan, ziyon zahmat keltiradigan, xavf-xatar tug'diradigan omillar va shart-sharoitlarni anglatadi.

Toshkent shaxri, 2023-yil 15-16 iyul kunlarida bo'lib o'tgan «Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar» mavzusidagi xalqaro konferensiyyada prezident Shavkat Mirziyoyev bir qancha takliflarni ilgari surdi.

Xususan:

— Markaziy va Janubiy Osiyoda zamonaviy, samarador va xavfsiz transport-logistika infratuzilmasini yaratish. Bunda «Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar» temir yo‘l tarmog‘i mintaqalarimiz o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik arxitekturasining asosiy bo‘g‘iniga aylanishi kerak;

— Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlarini iqtisodiy rivojlantirish maqsadida istiqbolli raqamli platformalarni joriy etish. Buning uchun savdo, tranzit, chegaralardan o‘tish borasida raqamli hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha aniq choralarni ishlab chiqish va bu jarayonga BMTning ixtisoslashgan tuzilmalari ekspertlarini jalg‘ etish;

— Mintaqalar hududida hamkorlikda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha Dastur ishlab chiqish uchun BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) shafeligida qishloq xo‘jaligi vazirlarining uchrashuvini o‘tkazish;

— Xavfsizlik va barqarorlikka tahdid va xavf- xatarlarga qarshi kurashishda kuchlarni birlashtirish. Dastlabki qadam sifatida BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi ishtirokida Giyohvandlikka qarshi qo‘shma harakatlar rejasini ishlab chiqish taklif etildi;

— “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishni rag‘batlantirish va ekologiya masalalariga alohida e’tiborni qaratish;

— Markaziy va Janubiy Osyoning ulkan sayyohlik salohiyatini to‘liq ishga solish. Bunda yangi va qulay sayyohlik mahsulotlari va yo‘nalishlarini, «ziyorat turizmi»ni rivojlantirish, vaksinatsiya bo‘yicha o‘zaro tan olingan sertifikatlar asosida «Yangi sharoitdagi turizm» konsepsiyasini joriy etish;

— Butunjahon sayyohlik tashkiloti doirasida Markaziy va Janubiy Osiyo bo‘yicha xalqlarimizning tarixiy va madaniy merosini ommalashtirishga qaratilgan dastur ishlab chiqish;

Shuningdek, prezident Shavkat Mirziyoyev:

— Ilmiy va madaniy-gumanitar almashuvlarni kengaytirish maqsadida Termiz shahrida YuNeSKO shafeligida «Markaziy va Janubiy Osyoning tarixiy merosi» mavzusida xalqaro forum o‘tkazishni taklif qildi;

— Yoshlar masalasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida doimiy faoliyat yuritadigan Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari yoshlari kengashini tuzish;

— Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlarining olim va tadqiqotchilari uchun soddalashtirilgan viza tartibini joriy etish, shuningdek, universitetlar va ilmiy-tadqiqot markazlari o‘rtasidagi hamkorlik bo‘yicha onlayn-platforma yaratish;

— Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida ushbu tahlil markazi qoshida mamlakatlarimizning taniqli olimlari, tadqiqotchi va tahlilchilaridan iborat Ekspertlar kengashini tuzish;

—Ushbu konferensiya yakunlari bo‘yicha Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasida, umuman, Yevrosiyo makonida doimiy va barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida o‘zaro aloqalarni mustahkamlash to‘g‘risida maxsus rezolyutsiya loyihasini ishlab chiqib, BMT Bosh Assambleyasiga taqdim etish taklif qilindi.[1]

Bu takliflar bejizga berilmadi, zero tahdidlarga qarshi kurashish har bir yosh avlodni hamda katta yoshdagi kishilarni burchidir. Adabiyotlarda tahdidlar quyidagicha turlarga bo‘lingan.[3]

Tahdidlarning turlanishi:

Tahdidlarning turlari	Ularning tavfsifi
Manbalarga ko‘ra	Ichki, tashqi
Faoliyat sohalari bo‘yicha	Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, harbiy, ekologik, demografik, ilmiy - texnokaviy, intelektual, intellektual informatsion
Inson faoliyatiga nisbatan	Ob’yektiv, sub’yektiv
Amalga oshish ehtimoli bo‘yicha	Inqiroz, qayta qurish, isloh etish, qarama qarshilik, sherekchilik tufayli.
Oqibatga ko‘ra	Umumiy, lokal, xususiy.

Iqtisodiy xavfsizlikka bo‘ladigan tahdidlar – mamlakatdagi iqtisodiy holatga salbiy ta’sir ko’rsatadigan, shaxs, jamiyat, davlatning iqtisodiy manfaatlarini cheklab qo‘yadigan, milliy qadriyatlar va hayot tarziga xavf soladigan hodisa va jarayonlardir.

Odatda iqtisodiy tahdidlar umumlashtirilgan holda ichki va tashqi tahdidlarga ajratilib o‘rganiladi. Iqtisodiy tahdidlar mamlakat iqtisodiyoti rivojiga, jamiyat, davlat, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar, fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga bevosita xavf tug’diradi. Bu tahdidlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishni izdan chiqarib, aholining turmush darajasini pasayib ketishiga olib keladi, jamiyat hayotida tanglik holatlarini keltirib chiqaradi, ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazadi.

Ichki tahdidlar jumlasiga mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishga qodir emasligi, taraqqiyotda innovatsion asoslarning zaifligi, qarama-qarshiliklar va ijtimoiy ziddiyatlarni hal etishda manfaatlar balansiga erisha olmaslik kabilar kiritiladi.

Adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlikka ichki tahdidlar sifatida quyidagilar keltiriladi:

- mamlakat iqtisodiyotining biryoqlama rivojlanganligi va tarkibiy

deformatsiyaning kuchayishi;

- milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining pastligi;
- iqtisodiyotning yuqori darajada monopollashuvi;
- yuqori darajadagi inflyatsiya;
- mineral – xom ashyo bazalarining kam o’rganilganligi;
- mamlakat ilmiy-texnika salohiyatining yomonlashuvi, fan-texnika rivojlanishining ayrim yo’nalishlarida ilg’or o’rnlarning boy berilishi, boshqa faoliyat sohalarida intellektual mehnat nufuzi va obro’-e’tiborining tushib ketishi;
- infratuzilmaning rivojlanmaganligi;
- ichki bozorlardan milliy tovarlarning chet el tovarlari tomonidan siqib chiqarilishi;
- hududiy separatizm va lobbizmning yuqoriligi;
- investitsion faollikning pasayishi;
- ijtimoiy ziddiyatlar kelib chiqish xavfining mavjudligi;
- qonunchilikning rivojlanmaganligi, huquqiy intizomning sustligi;
- moliyaviy va shartnomaviy intizomning pastligi;
- iqtisodiyotning kriminallashuvi, boshqaruvsda korrupsiyaning kuchayishi;
- daromadlarni yashirish, soliq to’lashdan qochish hollarining ko’payishi;
- moliyaviy mablag’larning chet ellarga noqonuniy tarzda o’tkazilishi.

Tashqi tahdidlar jumlasiga esa quyidagilar kiritiladi:

- eksport tarkibida xom ashyo mahsulotlarining ustuvorligi;
- mamlakatning import mahsulotlariga qaramligi, bog’liqligi;
- import tarkibining ratsional emasligi;
- tashqi qarzlarning o’sib borishi;
- eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo’lga qo’yilmaganligi;
- bojxona chegaralarining yetarli darajada belgilanmaganligi;
- eksport-import operatsiyalariga xizmat ko’rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivojlanmaganligi.

Yuqorida keltirilgan ichki tahdidlar orasida iqtisodiyot tarkibining deformatsiyalashuvining kuchayishi iqtisodiyotga sezilarli ta’sir ko’rsatadigan tahidlardan bo’lib hisoblanadi. Mamlakatda iqtisodiy o’sishni ta’minlash uchun birinchi navbatda tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirish kerak bo’ladi. Bunday o’zgarishlarning mazmuni ishlab chiqarish bilan talab tarkibi o’rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashda ifodalanadi. SHuni hisobga olgan holda O’zbekistonda olib borilgan islohotlar davomida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o’zgarishlarni amalga

oshirishga alohida e'tibor berildi. Ayniqsa, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish, real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash kabi masalalar birinchi navbatda hal etiladigan vazifalar qatoridan o'rinn oldi.

Iqtisodiy tahdidlar mamlakat iqtisodiyoti rivojiga, jamiyat, davlat, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga bevosita xavf tug'diradi. Bu tahdidlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishni izdan chiqarib, aholining turmush darajasini pasayib ketishiga olib keladi, jamiyat hayotida tanglik holatlarini keltirib chiqaradi, ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev: 5-16 iyul kunlari Toshkentda Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari konferensiyasidagi nutqlaridan.
2. Vechkanov G.S. ekonomicheskaya bezopasnost: Uchebnik dlya vuzov. – SPb. Piter 2007.
3. Abdulqosimov. X.P. "Iqtisodiy xavfsizlik" Akademiya 2006, 56 b
4. Mejdunarodnye strategii ekonomiceskogo razvitiya: Ucheb.posobie / Pod red. YU.V.Mokogona. – K.: Znannya, 2007
5. Ivanov YU. O globalnom mejdunarodnom sopostavlenii VVP po 146 stranam mira. // Voprosy ekonomiki, №5, 2008, s. 29-35
6. Aliyeva, M. (2023). ECONOMIC MANAGEMENT MECHANISM OF INNOVATION PROCESSES IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. В INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (т. 3, Выпуск 11, сс. 287–290). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10153172>
7. Aliyeva, M. (2023). formation of management system of scientific and technological development of industrial enterprises foreign experiences and possibilities of their application in uzbekistan. в central asian journal of education and innovation (т. 2, выпуск 11, сс. 14–20). zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10153082>.